



Academicia Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 6, June, 2022

INNOVATSIYA FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL JIHATLARI

Uktam Jiyanov,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Tel.: +998946626187, e-mail: uktam.jiyanov87@gmail.com

Annotation

Maqolada innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashning institutsional shart-sharoitlari, unga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, xulosada ilm-fan va sanoatni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazishda davlat innovatsion siyosati oldidagi ustuvor vazifalar keltirilgpn.

Kalit so'zlar: innovatsiya faoliyati, institutsional muhit, innovatsiya faoliyati infratuzilmasi, texnologiyalar transferi, biznes inkubatorlar, texnoparklar.

INSTITUTIONAL ASPECTS OF SUPPORTING INNOVATIVE ACTIVITIES

Uktam Jiyanov,

Senior Lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan

Phone №: +998946626187 e-mail: uktam.jiyanov87@gmail.com

Annotation

This article deals with the institutional context of innovation activities and the factors that influence it. The report also outlines the priorities for the state innovation policy of innovative development of science and industry.

Keywords: innovation activity, institutional environment, innovation infrastructure, technology transfer, business incubators, technology parks.

Introduction

XXI asrning boshiga kelib insoniyat yangi paradigma, ya'ni milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda mamlakatlar o'zining innovatsion ishlab chiqarish kontseptsiyasiga o'tishi zarur degan xulosaga kelindi. Natijada iqtisodchi olimlarning innovatsiyalar bilan bog'liq turli qarash va yondashuvlari rivojlanma boshladi. Jumladan, kichik biznes innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimining shakllanishi va rivojlanishida zarur resurslarning faqat miqdoriy ko'rsatkichlari emas, balki innovatsiya madaniyati rivojlanishi darajasi, yangi bilimlarni to'plash, yangi texnologiyalarni va innovatsion mahsulotlarning bozordagi harakatini ta'minlash darajasi kabi sifat ko'rsatkichlarni ham hisobga olinish zaruriyati vujudga keldi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani rivojlanishni institutsional yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki institutsional nazariyaning konseptual tamoyillari neoklassik yo'naliшhning haddan ziyod abstrakt, turg'un yondashuvlarini yengib o'tishga imkon yaratadi va milliy



iqtisodiy tizimni innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab olishga yordam beradi. Modomiki institutsional muhit – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini va ularning o'zaro munosabatlarini tashkil etuvchi qoidalar to'plami ekan, xo'jalik subyektlari faoliyati institutsional yondashuv doirasida ikkita muhim: transformatsiya va transaktsiya yondashuvi asosida tavsiflanadi. Ulardan birinchisida tadqiqotchilar diqqati ichki omillarning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'sir etishiga qaratiladi. Ikkinci yondashuv esa, o'z navbatida, tashqi omillar ta'sirini ko'rib chiqadi. shunday qilib, amerikalik iqtisodchi olim O.Uilyamsonning institutsional nazariyalar tasnifiga muvofiq institutlarni tasniflash, bиринчи navbatda, "xo'jalik subyektiga munosabat" belgisi bo'yicha amalgalashirilishi kerak, ya'ni ichki va tashqi institutlarga bo'linishi lozim ekan. Shunday ekan, innovatsion faoliyat korxonalar faoliyat yo'nalishlaridan biri ekanini hisobga oladigan bo'lsak, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash institutlarini tasniflashning dastlabki belgisi ularning xo'jalik yurituvchi subyektga munosabati hisoblanadi. Bunda bиринчи yo'nalish doirasida korxona va firma "ichidan", ya'ni innovatsion faoliyatga turli boshqaruv yondashuvida o'z ifodasini topgan me'yorlar, kelishuvlar va shartnomalar tizimi orqali tahlil qilinadi. Ikkinci yo'nalish iqtisodiy tashkilotlarni "tashqaridan" tadqiq etishga yo'l ochadi, e'tibor xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratiladi.

Institutsional yondashuv jihatdan "innovatsiya faoliyati infratuzilmasi" kategoriyasini innovatsiya faoliyatini amalgalashirish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoit yaratish nuqtai nazaridan innovatsiya jarayonini ta'minlovchi institutlar, ularning tashkilotlari va amalgalashiruvchi chora-tadbirlari yig'indisidan iborat deb ta'rif berish mumkin. Innovatsiya infratuzilmasini boshqarish innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash institutlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida davlat boshqaruv organlari tomonidan amalgalashiruvchi boshqaruv ta'sirlari yig'indisidan iboratdir. Institutlar – kishilar, guruqlar, tashkilotlar, davlat va jamoatchilik tashkilotlarining barqaror yig'indisidan iborat bo'lib, ularning faoliyati ma'lum me'yorlar, qoidalarga amal qilib, ijtimoiy vazifalarni hal qilishga qaratilgandir.

Innovatsiya faoliyati infratuzilmasi tashkilotlarining faoliyatini tahlil etish asosida ularning vakolatidan tashqarida bo'lgan bir qancha institutsional muammolarni ko'rish mumkin. Bu muammolar innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishiga qo'yiluvchi talab sifatida namoyon bo'ladi va innovatsiya faoliyati infratuzilmasi vazifasiga aylanadi. Bu vazifalarni amalgalashirishda innovatsiya faoliyati infratuzilmasida bir nechta kichik tizimlarni ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. U kichik tizimlar quyidagilardan iborat: rivojlanish kichik tizimi, bozor kichik tizimi, davlat kafolatlari tizimi, axborot va kommunikatsiya tizimlari. Innovatsiya faoliyatining moddiy asosini ta'minlovchi innovatsiya infratuzilmasi eng muhim resurs tizimi bo'lib, boshqa tizimlar unga bog'liq bo'ladi va bunday bog'liqlik sinergik samara beradi.

Milliy xo'jalikda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash institutlari tizimi ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklarga muvofiq qaror topadi. Innovatsion turdag'i institutsional model umumiyo'xi'jalik faoliyati masalalari bo'yicha rivojlangan milliy institutsional qonunlarning, shuningdek, intellektual mulk to'g'risidagi qonunlarning bo'lishini talab etadi, chunki innovatsion faoliyat bu yangi bilimlarni egallash va uni bozorning boshqa ishtirokchilari bilan amalgalashirishga bog'liq bo'lgan tijorat faoliyatidir.



Academica Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 6, June, 2022

Innnovatsion faoliyat infratuzilmasi institutlarining muhim kichik tizimi davlat kafolatlari kichik tizimi bo'lib, u innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi qonuniy chora-tadbirlarni qamrab oladi. Bu tizimga avvalo intellektual mulk huquqini himoya qilish tizimini kiritish zarur. Ushbu tizimda yetakchi ahamiyatga patent tizimi ega bo'lib, xalqaro me'yorlarga tayanuvchi bunday tizim innovatsiyalarning global bozoriga chiqish imkonini beradi.

Inson aqli, inson zakovati tushunchalari intellektual mulk obyektlari hisoblanadi va "intellektual mulk" nomi ham shundan kelib chiqqan. Intellektual mulk huquqlari birinchi navbatda, mualliflik huquqlarini, sanoat dizayni uchun patentlar va huquqlarni o'z ichiga oladi. Patentlar ixtirochilarga maxsus huquqlar taqdim etadi, shunday bo'lsa-da, ixtiolar yangi bo'lsa va amaliy ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan taqdirda patentlanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tashqi ko'rinishini belgilab beruvchi yangi yoki original estetik qarorlar sanoat dizayni deb ataladi. Har uch turdag'i intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish vaqt bo'yicha cheklangan. Intellektual mulk, shuningdek, savdo markalari va belgilarini, tovar birinchi bor ishlab chiqarilgan joyning geografik ko'rsatmalarini ham o'z ichiga oladi.

Intellektual mulkdan ruxsatsiz foydalanish uning egasi huquqlarini buzish hisoblanadi. 80-yillarning oxirlariga qadar bu kabi qonunbuzarliklar milliy darajaga ega muammolarni keltirib chiqargan bo'lib, faqat mulk egalari manfaatlariga zarar keltirish bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy-texnik taraqqiyotni ham sustlashtirgan, shuningdek, madaniy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Biroq keyingi yillarda intellektual mulkni muhofaza qilish maqsadida mamlakatlarda qabul qilinayotgan qonunlarning ularni amalga oshirish samaradorligi bilan bir qatorda, xalqaro savdoga ham sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani o'z-o'zidan ko'rinish turibdi. Buning sabablari juda ko'p, biroq ular orasidan uchtasiga e'tibor qaratish talab etiladi.

Birinchidan, bir qator industrial rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy faoliyatning fan sig'imi yanada yuqorilashib va texnologik jihatdan jadallahish bormoqda. Buning natijasida, ularning eksportga chiqaradigan ham an'anaviy (kimyoviy mahsulotlar, o'g'itlar va farmatsevtika tovarlari), shuningdek, nisbatan yangi (telekomunikatsiya jihozlari, kompyuterlar, dasturiy ta'minotlar) mahsulotlari intellektual mulk huquqlari obyekti hisoblanmish katta miqdordagi texnologik va ijodiy tarkibiy qismlarni o'zida jamlamoqda. Ishlab chiqaruvchilar bunday holatlarda ular qaerga o'z mahsulotlarini yetkazib berishlaridan qat'iy nazar ilmiy-tadqiqot faoliyati xarajatlarining o'rnini to'ldirish maqsadida ularning huquqlari mos tarzda muhofaza qilinishidan manfaatdordirlar.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarning katta qismida xorijiy investitsiyalar uchun cheklovlarning bekor qilinishi bilan bog'liq holda, litsenziya bo'yicha yoki qo'shma korxonalarda patentlangan tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Biroq industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar sanoat tarmoqlarining bu turdag'i munosabatlarga kirishish va o'z texnologiyalarini taqdim etish istagi ishlab chiqarish tashkil etilayotgan mamlakatlarda intellektual mulk huquqini muhofaza qilish tizimi bu texnologiyalar uchun ularning egalik huquqlarini mahalliy hamkorlar tomonidan ulardan noqonuniy ishlab chiqarishda foydalanmaslikni qay darajada ta'minlab bera olishiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, xalqaro savdo predmeti hisoblangan ishlab chiqarish tovarlarining texnologik



Academica Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 6, June, 2022

takomillashuviga yanada soddalashgan va arzonlashgan imitatsiya va takror ishlab chiqarish vositalari ham muvofiqlashib bormoqda. Intellektual mulk bo'yicha qonunlarga yetarli darajada qat'iy rioxat etilmaydigan mamlakatlarda bu holat nafaqat ichki bozorlarda sotish, balki eksport maqsadida ham qalbaki va o'g'rinchalik mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sib ketishiga olib keldi.

Xalqaro darajada, asosan, Juhon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) va undan avvalgi tashkilotlar boshchiligidagi intellektual mulkni bir xilda muhofaza qilishni ta'minlab bera oladigan qoidalarni ishlab chiqishga urinishlar boshlanganiga yuz yildan ham oshdi. Natijada intellektual mulk egalarini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarining asoslari sifatida bir nechta konvensiyalar qabul qilingan.

O'zbekiston 1991-yilning 25-dekabridan Juhon Intellektual Mulk Tashkilotiga a'zo bo'lib, yangi bilimlar madaniy bozorini shakllantirishga yordam beruvchi va intellektual mulkni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy tizimini belgilab beruvchi yigirmadan ortiq muhim xalqaro shartnomada ishtirok etdi. Shuningdek, JIMTni ta'sis etuvchi Konvensiyalar, sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnomaga, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimi va Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnomaga va boshqalarga a'zo.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish darajasi, davlat boshqaruv tashkilotlari va sud tizimiga ishonch bidirishlik biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish vaqtida davlatning innovatsion tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatiga aralashuvi kuchli, qat'iy, keng miqyoslarda bo'lishi lozim, bozor islohotlarining amalga oshirilishiga ko'ra u asta-sekin erkinlashib boradi.

Shunday qilib, davlat innovatsion siyosati davlatning aniq maqsadlar, tamoyillar, turli metodlar, mexanizmlar va ixtisoslashgan institutlar asosida ishlab chiqilgan innovatsion tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tadbirlarining muvozanatga solingan tizimini aks ettirishi lozim. Davlat innovatsiya tizimining maqsadi tanlab olingan ustuvor yo'naliishlar asosida ilm-fan va sanoatni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish lozim:

- ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning normativ-huquqiy asosini takomillashtirish;
- ilmiy-texnik majmualarning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashuvi, fan, texnologiya va texnikani rivojlantirish maqsadlarida davlat va xususiy kapitalning o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
- davlatning tartibga olish va bozor mexanizmlarining oqilona uyg'unligini, fan, texnologiya va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini amalga oshirishda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita rag'batlantirish tadbirlarini yaratish;
- davlat ilmiy markazlarini tashkil etish orqali ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatlarni rag'batlantirish;
- hududlarda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatlarning jadallahuvini qo'llab-quvvatlash va mamlakat ilmiy-texnik salohiyatining integratsiyalashishini rag'batlantirish;
- ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlanish.



Foydalanimilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Уильямсон О. Экономические институты капитализма: фирмы, рынки, отношенческая контрактация. - СПб.: Лениздат, 1996.
2. Малое предпринимательство в России: прошлое, настоящее и будущее. Под ред. Б.Г.Ясина, А.Ю.Чепуренко, В.В.Буева. - М.: Фонд «Либеральная миссия», 2003. - Стр. 137.
3. Орзебеков К.У. Инновацион фаолиятни солиқлар воситасида рағбатлантиришнинг илгор тажрибалари ва уларни Ўзбекистон шароитида қўллаш масалалари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил.